

# DEDE KORKUT

Uluslararası Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi  
The Journal of International Turkish Language & Literature Research  
Cilt/ Volume 7, Sayı/ Issue 17 (Nisan/ April 2019), s. 170-178.  
DOI: <http://dx.doi.org/10.25068/dedekorkut273>  
ISSN: 2147-5490, Mainz-Almanya



Özgün Makale/ Original Article

|| Geliş Tarihi: 21.02.2019  
|| Kabul Tarihi: 08.04.2019

## Mahmud Qoshg'ariyning Devon'ıdagi Tasavvuf İstilohlarning İlmîy-Nazariy Tadqiqı

*Kaşgarlı Mahmud'un Divan'ındaki Tesevvuf Terimlerinin Tetkiki*

*Analysis of The Terms Tesevvuf in The Work of Kashgar Mahmud's 'Divan'*

Axadova Maxbuba SALIMOVNA\*

### Rezume

Maqolada XI asrning noyob yodgorligi "Devonu lug'otit-turk" (DLT) asarida o'zbek tilidagi tasavvuf ilmiga oid tushunchalarni anglatuvchi terminlarning ifodalanishi, ularning hozirgi o'zbek tilidagi shakllari haqidagi fikrlar bayon qilingan. Bu mavzu o'zbek tilida ilk marotaba tadqiq qilinishi nuqtayi nazaridan o'ta ahamiyatlidir. Ayniqsa, "Devonu lug'otit-turk" asari tilida uchragan tasavvuf terminlarining bugungi kunda O'zbek tilida istemolda bo'lgan ammo ma'nosi yaxshi izohlanmagan bir qancha so'zlarni ma'nosini tushunishga yordam beradi. Jumladan, Turkiyshunoslikda ham ushbu mavzuga juda kam tilshunos olimlar murojaat qilishgan. Bu tadqiqot kelajakda ham mumtoz adabiyot, ham Tasavvuf terminlari lug'ati uchun ham foydali manba bo'la oladi. Bundan tashqari "Devonu lug'otit-turk" asari tilidagi tasavvuf terminlari Alisher Navoiy, So'fiy Olloyor, Yusuf Hos Hojib, Yunus Emro va boshqa adiblarning asarlari tili bilan qiyoslanmoqdadir.

**Kalit So'zlar:** DLT, O'zbek Tili,, Tasavvuf İlmî,Turkiy Tasavvufiy Mazmun, Tasavvufiy İstiloh.

### Öz

Bu makalede XI. yuzyılın paha biçilmez eseri "Dîvânü Lugâ't-it-Türk (DLT)"te geçen ve tasavvufılgili anlamları olan terimler ve bu terimlerin kullanımı ve modern Özbek Türkçesindeki şekilleri üzerinde durulmaktadır. "Dîvânü Lugâ't-it-Türk"te yer alan tesevvuf terimleri Ali Şir Nevayi, Süfi Allayar, Yusuf Has Hacip, Yunus Emre ve başka yazarların eserlerinde kullanılmış sözlerle karşılaştırılmaktadır. Bu konu, Özbek Türkçesindeki ilk araştırılmalarından olması bakımından oldukça önemlidir. Türkölojide de bu konuyla çok az dilbilimci ilgilenmiştir. "Dîvânü Lugâ't-it-Türk"te yer alan tasavvuf terimlerinin dil bakımından incelenmesinin günümüz Özbek Türkçesinde kullanılmakta olan ama anlamları tam olarak açıklanamayan birçok sözcüğün mana özelliklerinin ortaya konulmasında önemli

katkısı olacaktır. Hem Divan Edebiyatı için hem de Türkolojide ileride hazırlanabilecek Büyük Tasavvuf Terimleri Sözlüğü için yararlı bir malzeme sunacaktır.

**Anahtar kelimeler:** DLT, Özbek Dili, Tasavvuf, Türk Tasavvuf Şiiri, Tasavvuf Terimleri.

### Abstract

The significance of suffistic words and expressions given in the unique heritage "Devony dictionary at-turk (DLT)" written in XI the century and topecalily in using them in Uzbek language were observed in the article. This article is very important in terms of the first research in Uzbek Turkish. In particular, the study of the terms of the syllable in "Devony dictionary at-turk" will be useful to understand the mana characteristics of many words which are in force in today's Uzbek Turkish, but whose meanings are not thoroughly explained. For example, in Turkology, very few linguists have applied to this subject. It will be a useful material for both the Divan Literature and the Grand Virtues of Glossary. The terms of "Devony dictionary at-turk" in Turkish language are compared with the words used in the works of Ali Şir Nevayi, Süfi Allayar, Yusuf Has Hacıp, Yunus Emre and other authors.

**Keywords:** DLT, Uzbek Language, Sufism, Suffistic Turkish Poetry, Siffistic Terminology.

### Giriş

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari nafaqat lug'at, balki o'rta asr turkiy tillarining fonetika, morfologiya, leksika va dialektologiyasini mukammal izohlab bergan to'la ma'nodagi filologik asardir. M. Qoshg'ariy o'z qomusiy asarini ko'p yillar yurtma-yurt yurib, xalq og'zidan to'plagan materiallari asosida tuzganligi ma'lum. Bu usul bir tarafdin o'sha davr tilidagi butun so'zlarni va har qanday so'z turlarini mukammal qamrab olishga imkon bergan bo'lsa, ayni paytda to'plangan materiallar tilning har bir sohasiga doir boy namunalar to'plami bo'lib ham xizmat qilgan. Hozirgi o'zbek tilida tasavvuf sohasiga xos ma'lum tushunchani anglatuvchi lug'aviy birliklar lug'atda qay tarzda ifodalanganligini tahlil qilamiz.

Umumiy tilda diniy tushunchalarni anglatadigan tasavvuf so'zlari ham lug'atda uchraydi. Misol uchun: *namozi asr* (kun botishdan oldingi namoz) *vaqti ikindi* (I, 158) so'zi vositasida ifodalangan yoki *Olloh* kalimasi o'rnida *Ezi, Bajat, Tenri* ishlatilgan.

So'fiy Allohning oshig'idir. Turkiy tasavvuf she'riyatining vakili Yunus Emro Haq oshiqlari tilidan: «*Ishqing oldi mandin mani, manga san keraksan san. Jismim yonur kecha-kunduz, menga san keraksan, san*», degan.

Shu o'rinda ulug' Yassaviyning so'zlarini ham esga olamiz:

«*Ishq balosi boshga tushsa nolon qilur, aqling olib, behush qilib hayron qilur...*».

Haqiqatdan ham, tasavvuf ummoniga chuqurroq sho'ng'igan sari ilohiy ishq g'avg'osidan o'shancha ko'p hayronliq paydo bo'ladi. «Devon»<sup>1</sup>da "*Ishq va shavqning qo'zg'olishi, hayajonga kelishi...*" ma'nosini ifodalaydigan *ijzik* so'zi berilgan. Bu so'zning ma'nosini yorituvchi misol quyidagichadir:

*ijzik* meni qumitti

*Saqinch menä jymitti*

<sup>1</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit - turk (Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom (tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). - Toshkent: "O'zSSSR Fanlar akademiyasi". 1960 - 1963.



(Sevgilimga bo'lgan shavq va muhabbat meni hayajonga soldi. Qayg'ular menga to'plandi(I, 99).

**Tamu** – do'zax, tamug'//tabug'

Maqolda shunday kelgan: tamu qapug'in achar tawar pora do'zax eshigini ochadi, nega boshqalar ochmas ekan. Bu maqol ish bitishini istagan odam pora berishi kerak degan ma'noda qo'llanadi(I, 354).

Ushbu ma'noni ifodalash uchun asarlarida Alisher Navoiy, asosan, **do'zax** so'zini qo'llagan: kimki bo'lur bir sharoring fosh anga, **do'zax** o'ti bo'lgusi podosh anga. Ya'ni, «biror yomonlig'ing, zararingni yashiraman deb o'ylamagin. Alloh bilguvchidir va bu yomonlig'ing uchun, albatta, do'zax o'tida jazolanasan».

**Tamu** so'zi hozir ham **tamug'** shaklida qo'llanadi. Shoir asarlarida “do'zax” ma'nosida ba'zan **tamug'** ishlatilganligini ham uchratish mumkin: avfing aning tutmasang ummidsan, balki **tamug'** o'tida jovidsan.

Mazkur baytning ma'nosi quyidagicha: “agar gunohlaringni Alloh kechirishini so'ramasang va umid qilmasang, qilmishing uchun do'zax olovida kuyishing tayindir”.

Lug'atda berilgan **tapug'** so'zining ham tasavvuf ilmiga aloqadorligi bor va qadimda quyidagi ma'noda qo'llangan:

**tapug'** – xizmat qilish, toat ibodat qilish.

teħri tabug'i – xudoga toat qilish (I, 354) tarzida izohlangan.

Bu so'z hozirgi tilda ishlatilmasa-da, mumtoz adabiyot namunalarida qo'llanilgan. A. Navoiy asarlarida **tabug'//tabuqdan** yasalgan **tabuqchi**, **tabunmoq**, **tabing'u** shakllari uchraydi: aylab **tabug'**, hamisha turub bir ayog'da (ma'nosi: (Alloh jamoliga maftun oshiq) hamisha bir oyoqda turib mashuqasiga kecha-yu kunduz toat-ibodat qilguvchidir, sig'inguvchidir).

Insonning havoyi nafsining kuyiga kirmaslik, uni yengib shariat va tariqat talablariga muvofiq yashash uchun jahd ila qilgan harakati mazmunini ifodalovchi **riyozat**, **jihot//mujohada**, **sabr** istilohlariga yaqin ma'noda qo'llangan **mizig'** so'zi lug'atda quyidagicha izohlangan:

**mizig'** – bir narsadan tiyish, man qilish, qaytarish(I, 354).

Bu so'z hozir **tiy(ish)//(tiy(moq))** tarzida qo'llanadi. A. Navoiy va boshqa klassiklar asarlarida ham shunday shaklda uchraydi:

**Tiymagil** devona ko'nglumniki, rasvo bo'lma deb,

Oshiq o'lg'aymu edi ul telba rasvo bo'lmasa.

(Mazmuni: devona ko'nglmni «rasvo bo'lmagin» deb man qilmagin, agar u aslida rasvo bo'lmasa, oshiq bo'lmas edi).

Lug'atda tasavvufga aloqador shaxs nomlarini ifodalovchi quyidagi **esh** – **esh**; hamroh, o'rtoq; alohida tabiatli kishilarga nisbatan ham **eshlik** deyiladi(I, 81); **telwä** – devona, telba(I, 402); **qam** – fusungar, kohin(III, 172); **aqi** – saxiy, qo'li ochiq(I, 116); **umduchi** – so'rovchi(darvish) (I, 146); **tabuqchi** – ibodat qiluvchi(I, 354); **achiq** – oriq, zaif (o'g'uzcha va qipchoqcha)(I, 97) kabi so'zlar keltirilganligiga guvoh bo'linadi.



«Devonu lug'otit-turk»da *payg'ambar* so'zi berilmagan, (*näbi(nabi)* lug'atga kiritilgan). Bundan ko'rinadiki, bu so'z o'sha davrlarda butunlay qo'llanilmagan, yoki kam qo'llanuvchi so'z hisoblangan. Uning o'rnida bizningcha, *yalovoch* so'zi faolroq ishlatilgan bo'lishi kerak (*Yusuf Yalovoch* kabi.) *Yalovoch* so'zi lug'atda quyidagicha izohlangan: *jalawach – payg'ambar*. Bu so'zning *jalavach* varianti ham bor. *Yalovoch* so'zi sof turkiy so'z, lekin hozirgi tilimizda o'ta kam qo'llanadigan so'zlar qatoriga o'tib qolgan («O'zbek tilining izohli lug'at»<sup>2</sup>larida ham izohi berilmagan). Turkiy so'z hisoblangan *savchi* esa «*Allohning xabarchisi*» ma'nosida umuman qo'llanilmaydigan holatga kelgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zlashma so'zlar – fors-tojik tilidan o'zlashgan «*xabar keltiruvchi*» ma'nosidagi *payg'ambar*, arabcha *nabiy*, «*elchi*» ma'nosini anglatuvchi *rasul* (ilohiy kitob nozil qilingan *payg'ambar*) faol qo'llanuvchi so'zlar hisoblanadi. Ma'nolari «Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati»<sup>3</sup>da ham izohlangan. Shu davrda «*Allohning xabarchisi*» ma'nosini ifodalagan asl turkiy *elchi* so'zi hozir tilimizda «*diploamatik vakillarning eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo'lgan kishi*» mazmunini anglatadi.

*Telij* – *telba, tentak(o'g'uzcha)*(ishq bilan bog'liq)

*Telij* so'zi ham tasavvufga aloqador. Yuqoridagi so'z izohidan ham ko'rinib turibdiki, hozirgi *telba* so'zi ana shu *telij* o'zagidan olingan.

A. Navoiy asarlarida *telba* shakli uchraydi.

*Bazmdagi qari-yu gar xud yigit,*

*Maydin o'lub har biri bir telbai it.*

(Mazmuni: *Darveshlar bazmida ishtirok etgan odam, yosh-qariligidan qat'i nazar, Haq ishqidan mast bo'lgan oshiq telba kabi giryondir*).

Ba'zi asarlarda bu so'z *taluy* shaklida uchraydi va dengizga nisbat beriladi.<sup>4</sup> Bu bejiz emas. Dengiz to'lqinlarining telbavor tartibsiz harakat qilib uchragan narsani g'arq qilishiga o'xshatish ma'nosida *taluy* deyiladi.

Lug'atdagi eski turkiy til namunalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, til taraqqiyotining avvalgi davrlarida iste'molda bo'lgan lug'aviy birlik vaqt o'tishi bilan shaklan o'zgarishsiz(yoki qisman o'zgargan) holda, lekin leksik ma'nosi butunlay o'zgargan tarzda hozirgi o'zbek tilida qo'llanadi. Bunday lug'aviy ma'nosi o'zgargan so'zlar lug'atda ko'p uchraydi. Misol uchun, *sergäk* so'zining izohi lug'atda shunday berilgan:

*sergäk* – *mastlikdan egilish, qiyshayish, sollanish, gandiraklash*

*äsro'ksergädi* – *mast gandirakladi, sollandi* (II, 334).

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. I, II tom. (tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). - Toshkent: "O'zSSR Fanlar akademiyasi", 1960 - 1963; O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik. (I, II, III, IV, V tom). - Toshkent: 2008.

<sup>3</sup> A. Hojiyev, A. Nurmonov va b. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. - Toshkent: "Sharq". 2001.

<sup>4</sup> S. Ye. Malov, Pamyatniki drevnetyurkska pismennost, M., 1951, str. 27. 34.



*Sergak* shaklidagi so'z o'zbek tilida mavjud, lekin qizig'i shundaki, bu so'z tilimizda yuqoridagi mazmunni emas, butunlay teskari ma'noni ifodalaydi. Mana uning lug'atdagi izohi:

*sergak* 1. tez, darhol sezadigan; sezgir, ziyrak, xushyor. *Sergak* soqchi. *Sergak* bo'lmoq. Kiyikdek sergagu xushyor chavandoz, Qadam qo'yganda tog' qilgan ovoz. (Habibiy: [Madamin:]

Bu o'rinda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari qahramonini esga olamiz. Asar qahramoni O'zg'urmish - toat-ibodat qiluvchi zohid. U qanoat timsoli. Ma'lumki, uning O'zg'urmish ismi "sergaklantiruvchi, ogohlantiruvchi" ma'nosini anglatadi.

Tariqatni ixtiyor qilgan inson oshiq darvishdir. Alloh jamolidan hayronlik holi orif oshiq ko'nglidagi doimiy holat. Mansur Xalloy, Mashrab kabi muhabbat mayidan mast so'fiylarning jununi - Alloh ishq hosilasi. Demak, tasavvufda *mast* bilan *sergak* so'zining bir tushunchani ifodalashi tasodifiy emas. Hozirgi o'zbek tili umumleksikasida *sergak* so'zining qadimda "ziyrak, xushyor" ma'nosini anglatishi tasavvuf ilmi bilan bog'liq. U ilohiy ishqdan mast oshiqning ahvoli-ruhiyasini ifodalaydi. Eski turkiy tilda "mast, sarxush" ma'nosini *esriyk* so'zi ham ifodalagan. Bu lug'atda qayd etilgan: *esriyk* - mast, sarxush(I, 129) tarzida. *Esriyk* so'zining qoldig'i hozirgi o'zbek tilining o'g'uz shevalarida *esermoq* tarkibida saqlanib qolgan. Bu so'z ham "gerdaymoq, erishgan yutug'idan mast bo'lmoq, o'zidan ketmoq, atrofidagilarni ko'rmaslik" ma'nosida Xorazm shevalarida qo'llanadi. *esriyk* o'g'uzcha so'z. Negadir aksariyat lug'atda berilgan o'g'uzcha so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan holga kelgan.

«Devon»<sup>5</sup>da *teshik* so'zi ham *teshik* - ochko'z, qornito'yadi-yu, ko'zi to'ymaydi(I, 368) tarzida izohlangan. Bu so'z hozir "teshilgan joy, kovak, o'yi. Ignaning teshigi" ma'nosida qo'llanadi.

Yuqoridagi ma'nolar bir qarashda guyo bir-biriga bog'liqmasday ko'rinadi. Bizningcha, *teshik* so'zi "teshilgan joy, kovak" ma'nosini o'sha davrda ham ifodalagan bo'lishi kerak. Bu ma'no so'zning bosh ma'nosi bo'lgan, "ochko'z, qorni to'yadi-yu, ko'zi to'ymaydi" esa shu ma'nodan metafora asosida urchigan ma'nosidir. "Teshilgan joy, kovak" ma'nosi lug'atda negadir tushirib qoldirilgan. *Teshik* so'zi "ochko'z" ma'nosida hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi. Dialektlarda ham ishlatilishi kuzatilmaydi.

*Ötrijk* so'zini leksik ma'nosini o'zgartirgan so'zlar qatoriga kiritish mumkin. Bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'molda bo'lmasada, qipchoq shevalarida «Devon»<sup>6</sup>da berilgan ma'nosida aynan qo'llaniladi. Uning izohi lug'atda shunday berilgan: *ötrijk* - hiylagar, aldamchi, ayyor, yolg'onchi(o'g'uzcha) (I, 127).

«Devonu lug'otit-turk»da "parda" ma'nosini anglatuvchi *örtijk* so'zi ham mavjud:

<sup>5</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit - turk (Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom(tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). - Toshkent: "O'zSSSR Fanlar akademiyasi". 1960 - 1963.

<sup>6</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit - turk (Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom(tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). - Toshkent: "O'zSSSR Fanlar akademiyasi". 1960 - 1963.



**örtijk**– *parda, o’rtuk; masalan: egar pardasi(yopig’i); katta odamlarning qabrlari ustiga yopilgan ipaklik va yopiladigan boshqa har narsaga ham shunday deyiladi (I, 128).*

Izohlarni keltirishimizdan maqsad **ötrijk** va **örtijk** so’zlarining kelib chiqishida va lug’aviy ma’nolarida bog’liqlik bo’lishi mumkin, degan taxminni keltirmoqchimiz. Chunki, davr o’tishi bilan ma’lum sababga ko’ra tovush o’zgarishi – “t” va “r” undosh tovushlarining o’rin almashishi, ya’ni metateza hodisasi yuz bergan bo’lishi mumkin: **yomg’ir-yog’mir, tuproq-turpoq, aylanmoq-aynalmoq** so’zlarida bo’lgani kabi.

Tasavvuf ilmida **parda**(arab.*hijob*) tushunchasi bor.

Bu tushunchaga ko’ra “**hijob** – *parda, to’siq. Oshiqni ma’shuqasidan ajratadigan yoki yiroqlashtiradigan parda. Dunyo va oxiratga oid tama’ va niyatlar insonni Allohdan ajratuvchi hijoblardir. Nafs mayllari va shular tufayli tug’iladigan katta-kichik gunohlar ham Haq va solik orasini to’sib turuvchi hijoblar hisoblanadi.*

“Alloh ila qo’l orasida nurdan va qorong’ulikdan maydonga kelmish ming parda bordir,”<sup>7</sup> deydi buyuk bobokalonimiz Shayx Najmiddin Kubro. Bu pardalarni yo’q qilish uchun inson hayotini botin pokligiga bag’ishi lozim. Xususan, Alloh ishqidan benasib bo’lmalik bunda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oshiqni ma’shuqasidan ajratadigan, yiroqlashtiradigan parda, eng avvalo, **ötrijk** so’zining izohida berilganidek, “*hiylagarlik, aldamchilik, ayyorlikvayolg’onchilik*” dir. Soflik, to’g’rilik, haq talabida bo’lgan ahli tasavvuf uchun sayru sulukka dastlabki qadam qo’yish yolg’on pardasini chok-chokidan so’kib o’tishdan boshlanadi.

Lug’atda **alqindi** so’zi mavjud. Hozirgi tilda qipchoq shevalarida kir yuvadigan yoki xushbo’y hidli atir sovunning kam miqdordagi qoldig’i **alqindi** deyiladi.

«Devonu lug’ot it-turk»dagi **alqindi** so’zining izohiga ahamiyat beraylik:

**alqindi** – *tamom bo’ldi, tugadi. Alqindineh*– *narsa butunlay tamom bo’ldi, tugadi.*

**Eralqindi** – *odam o’ldi, tugadi, yo’q bo’ldi(alqinur, alqinmaq) (I, 255).*

Avvalo, insonning vafot etishiga ham **alqindi** ishlatilgan ekan(so’zning ikkinchi izohida). Buning ham tasavvufga aloqasi bor. Undan tashqari “bu dunyoning tashvishlari, mayda iker-chikirlari, qolversa g’am qayg’usidan inson faqat bu dunyodan o’tgandagina qutuladi, arinadi, tozalanadi” degan gaplar xalq orasida yuradi. Bu ma’no ham **alqindi** – sovunning tozalash xususiyatini eslatadi. Xullas, bu mulohazalardan qat’iy nazar **alqindi** so’zi diaxron va sinxron planda har xil tushunchalarni ifoda etuvchi so’z sanaladi.

Shu kabi **sin** so’z ham o’zbek tili dialektida mavhum tushunchani anglatuvchi so’z. Uning ma’nosi “*biror-bir narsa-buyum yoki shaxsning go’zalligi, chiroyi, ko’rkidir*”. Shu bilan birga o’zbek tilidagi **sinmoq** fe’lining o’zagini ham tashkil etadi. U o’sha davrlarda “*qomat, gavda*” ma’nosini anglatishidan tashqari “*qabr*” ma’nosini ham anglatgan ekan. Uning izohi quyidagicha:

**sin** – *qomat, gavda. Bu so’zdan olib, bozlug’sinlig’kishi – bo’yi uzun odam deyiladi.*

*go’rni sin* deyish ham uning bo’yi uzunligi – odam bo’yiga tengligidandir;

<sup>7</sup>Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Tasavvuf istilohlari sharhi. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2004.



*sîn* – *go'r*(III, 152).

Izohda “*bozlug' sînlig' kishi-bo'yi uzun odam*” degan jumla mavjud. Odam bo'yining uzunligi ham aslida ko'rk hisoblanadi. Undan tashqari “*go'rni sîn deyish ham uning bo'yi uzunligi-odam bo'yiga tengligidandir*” deyilgan. Odam vafot etganidan so'ng odatda insonlar tomonidan uning insoniy fazilatları, qilmish-qidirmishi yodga olinadi. “Yaxshi insonmidi, yoki yomon” ekanligi haqidagi xulosalar chiqariladi, guyoki sarhisob qilinadi. Vafot etgan odamning ko'rki, chiroyi(ya'ni(*sini*) uning hayoti davomida bajargan yaxshi amallari va yaxshi fazilatlarida deb topiladi. Shunday ekan, o'sha zamonlarda qabrga *sîn* deyish shu ma'no zamirida paydo bo'lganligi ehtimoldan xoli emas.

Hozirgi tilimizda *tîn* so'zi ham, *oz* so'zi ham mavjud. *Tintinmoq* fe'lining o'zagi, *oz* miqdorni bildiruvchi ravishdir. Qizig'i shundaki, bu ikki so'z “*ruh*” manosini ifodalagan ekan. Inson ruhining ko'z ilg'amas narsa ekanligi hisobga olinganda *öz* va *tîn* so'zlari bilan *ruhning* ma'nosida o'xshashlik bordek go'yo. Bu so'zlarning lug'atdagi sharhlari quyidagicha:

*tîn-ruh, jon, nafas: anîntînike*□*sildi* – *uning joni uzildi*(I, 326);

*öz: öz qonuqi* – *gavda ichida harakat qiladigan narsa, ruh*(I, 81).

*Ötlyk* – *o'git, nasihat; shu ma'noda ... övÿjt*(so'zi) *ham qo'llanadi. Aslida ögÿjt dir*(I, 127).

Diaxron va sinxron planda(eski turkiy til va hozirgi adabiy tilda) aynan qo'llanadigan «Devon»<sup>8</sup>da berilgan tasavvufiy ma'no anglatuvchi so'zlar 80 tani tashkil etadi.

O'zbek tilida “*Kishining ruhiy yoki ma'naviy dunyosi, ichki his-tuyg'ularining markazi ramzi*” ma'nosini ifodalovchi *qalb, ko'ngil, dil, yurak* so'zlarining ichidan turkiy *yurak(jÿrâk)* so'zi qadimda ham(X-XI asrlarda) o'zgarishsiz holda, aynan hozirgi shaklida qo'llangan. Hamda «Devon»<sup>9</sup>da quyidagicha izohlangan: *jÿrâk- yurak.jÿrâkli-yurakli, botir*(III. 25).

So'fiy va mutasavvuf'larga ko'ra, *yurak* inson tirikligi va ma'naviy hayotining bosh manbai, ma'rifat va irfon markazi, kashf va ilhom oynasi, Haq va Haqiqat sirlarining tajalligohi. Ahmad Rifoyniing ta'biricha “*nurlarjamlanganjoy.*” Insondagi ilohiy, shaytoniy, nafsoniy, hayvoniy, xullas, barcha hol va xususiyatlar yurakda aksini topar. Ana shu *yurak* so'zi o'zgarishsiz qo'llanadi.

Tasavvuf ilmida ma'lumki, “*ochiq-oydin aniq va shubha - gumondan mutlaqo holi ilm*” ma'nosini ifodalovchi *yaqiyin* istilohi mavjud(arabcha *yaqin* hozirgi o'zbek adabiy tilida «*sobit qadam; shubhasiz, beshak, durust; haqiqat, rost, durust*»<sup>10</sup> ma'nosini ifodalaydi).

<sup>8</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit - turk (Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom(tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). – Toshkent: “O'zSSSR Fanlar akademiyasi”. 1960 – 1963.

<sup>9</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit - turk (Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom(tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). – Toshkent: “O'zSSSR Fanlar akademiyasi”. 1960 – 1963.

<sup>10</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. I, II tom. (tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). – Toshkent: “O'zSSR Fanlar akademiyasi”, 1960 – 1963.



Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, "qay zamonki nafs biror narsani tasdiqlashga tarafdor bo'lsa va o'sha narsa nafsdan g'olib kelib, istalgan shaklda uni tasarruf eta olsa **yaqiyn** nomi berilur".<sup>11</sup> Manbalarda yozilishicha, **yaqiyn**ning uch maqomi bor:

1) ilm-ul yaqiyn – o'qib-o'rganish va aqliy dalillarga asoslanib erishiladigan bilim, shariatning zohiri; 2) ayn-ul yaqiyn - shariat ahkomini ixlos ila ado qilib umr kechirmoq va haqiqatga tayanmoq; 3) haq-ul yaqiyn – mukoshafa yo'li bilan hosil etiladigan botiniy ilm, hol sirlarini ochuvchi bilim.

Ushbu **yaqiyn** darajalari shunday farqlanadi: aytaylik, bir kishi ikkinchi bir kishiga shirin va lazzatli mevani ta'riflab berdi. Shu mevaning ko'rinishi va ta'mi haqidagi tasavvur va ishonchning yuzaga kelishi **ilm-ulyaqin**. O'sha mevani ko'zi bilan ko'rib ushlashi – **ayn-ulyaqiyn**. Mevaning yeyilishi va lazzatlanish **haqq-ulyaqiyn** demakdir.

Yuqoridagi kabi ilm nomini bildiruvchi **yaqiyn** istilohi umumiy tilda **yaqin** tarzida yoziladi va aytiladi. Hamda "Devonu lug'at at-turk" da aynan **yaqin** shaklida berilgan:

*jaqin – yaqin: jaqin jer –yaqin joy*

*jaqin er – do'stlardan yaqini (III, 29).*

Xullas, tilda taraqqiyot va o'zgarish jarayoni hech qachon to'xtamaydi. Turkiy tillar esa bir necha taraqqiyot davrini boshdan kechirdi va har bir davrning o'ziga xos qonuniyatlari mavjud. Ma'lumki, tildagi o'zgarishlar birdaniga – bir-ikki yil orasida emas, balki asta-sekinlik bilan ro'y beradi. «Devoni lug'otit-turk» asarida qayd etilgan ba'zi so'zlar davr o'tishi bilan hozirgi turkiy tillarda qo'llanilmaydigan holga kelgan. Bunday so'zlarning tasavvuf ilmiga oidlari devonda katta qismni tashkil etadi. Ayniqsa, sifat so'z turkumiga xos insoniylik belgilarini anglatuvchi, fe'lga kiruvchi ijobiy va salbiy harakatlarni ifodalovchi so'zlar anchagina miqdorda. «Devon»<sup>12</sup>dagi(shu jumladan tasavvufga aloqador) so'zlarning bir qismi til taraqqiyot qonunlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo'lsa ham, asosiy qismi turli fonetik shakllarda o'zgarishsiz holda bizgacha yetib kelgan. O'tgan davr ichida qo'llanib kelingan va bir qancha yangi so'zlar yasalishiga manba bo'lib xizmat qilgan. Ba'zi so'zlar til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq benihoya o'sib urchigan, bir qismi siyrak ishlatiladigan bo'lib qolgan. Yana ayrimlarining esa lug'aviy ma'nosida o'zgarishlar ro'y berganligiga amin bo'lamiz.

<sup>11</sup>G'azzoliy Abu Homid. Mukoshafat – ul qulub. (Qalblar kashfiyoti), "Yangi asr avlodi", Toshkent. – 2004. 316 b.

<sup>12</sup> Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. -Toshkent. "Istiqlol", 1999; Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1991; Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: "Movarounnahr". - 2004.

<sup>13</sup>Qoshg'ariy M. Devonu lug'ot it – turk(Turkiy so'zlar devoni). Uch tomlik. I, II, III tom. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). "O'zSSSR Fanlar akademiyasi" nashr., Toshkent. – 1960 – 1963.





**Kaynaklar**

- Alisher Navoiy (1991). *G'azallar, sharhlar*. (To'plab nashrga tayyorlovchilar: A. Sharopov, B. Eshpo'latov) – Toshkent: Kamalak.
- Alisher Navoiy A. (1968). *Asarlar*. 15 – tomlik. Toshkent.
- Alisher Navoiy A. (1991). *Munajat*. (Nashrga tayyorlovchi va lug'atlar muallifi: Suyima G'ani qizi. Xattot: S. Raf'iddin), Toshkent: G'afur G'ulom.
- Koshg'ariy M. Devonu lug'otit – turk* (Turkiy so'zlar devoni). (1963). (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov). Uch tomlik. I, II, III tom, Toshkent: "O'zSSSR Fanlar akademiyasi" nashr.
- Malov S. Ye. (1951). *Pamyatniki drevnetyurkska pismennost*, Moskva.
- Turar Usmon. (1999). *Tasavvuf tarixi*. Toshkent: Istiqlol.
- Uludağ, S. (1995). *Tasavvuf terimleri so'zlugi*. Istanbul. – 1995.
- Shayx Najmiddin Kubro. (2004). *Tasavvufiy hayot*. – Toshkent: Movarounnahr.
- Yusuf Xos Hojib. "Qutadg'u bilig".

